

XX-ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTONDA MUSIQIY DARGOHLAR FAOLIYATI AN‘ANA VA ZAMONAVTYLIK KESIMIDA

Azizjon Mo‘minov

*Samarqand ixtisoslashtirilgan san‘at maktabi oliy toifali o‘qituvchisi, “Musiqqa nazariyasi”
kafedrasini mudiri.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda musiqa ta‘limi, taraqqiyoti va tadqiqotlari yuzasidan qimmatli ma‘lumotlar o‘rin olgan. Bundan tashqari uning yaqin o‘tmishi va bugungi ahvoli haqidagi ayrim fikrlar ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogika, an‘ana, san‘at, konservatoriya, shashmaqom,*

Annotatsiya: *Эта статья содержит ценную информацию о музыкальной образовании развитии и исследованиях в Узбекистане. Также есть некоторые сведения о ее недавнем прошлом и нынешнем состоянии дел.*

Ключевые слова: *педагогика, традиция, искусство, консерватория, шашмаком.*

Annotation: *This article contains valuable information about music, education, development and research in Uzbekistan. There are also some notions of its recent past and present state of affairs*

Key words: *pedagogy, tradition, art, conservatory, shashmakom.*

Ma‘lumki, jamiyat istiqbolini belgilab beruvchi kelajak avlod vakillarini g‘oyaviy-siyosiy jihatdan etuk shaxs bo‘lib shakllanishi, bir so‘z bilan aytganda, komil inson tarbiyasi davlat taqdirini belgilovchi omillardan biri ekanligi yaqqol namoyon bo‘lib, yanada dolzarb mavzulardan biriga aylana bordi. O‘z navbatida respublika ta‘lim tizimida bir qator islohotlar olib borildiki, ulardan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlar ongi va bilim saviyasini oshirishda barcha choralardan unumli foydalangan holda jamiyatga malakali mutaxassis-kadrlar etkazib, bu borada etarlicha ijobiy natijalar ham qo‘lga kiritildi. Darhaqiqat, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston muhitida ulkan tarixiy jarayonlar san‘at sohasida ham o‘z in‘ikosini topmoqda.

Sobiq Sho‘ro davridagi bir qator adabiyotlarda XX asr boshlari, xususan, inqilobgacha bo‘lgan davrda Turkistonda nafaqat musiqa, balki butun madaniy ahvolning nihoyatda past darajada bo‘lganligi ta‘kidlanar edi. Madaniy taraqqiyot esa, bevosita Turkistonning Rossiya tarkibiga “qo‘shib olinishi” bilan izohlanardi. Ammo, bu imperiyaparastlik fikrlar haqiqatdan ancha yiroq edi, albatta. Chunki, mazkur davrda bu zaminda yuzaga kelgan yuksalishlar, ma‘naviy intilishlarning hammasi ob‘ektiv ijtimoiy taraqqiyot va davr taqazosi edi, xolos.

Mazkur kesimda XX asrning boshlarida Turkistonda tub o‘zgarishlar yuzaga kelganligini e‘tirof etish joiz. Bunda mamlakatdagi xon va amirlik tizimi tugatilib, yangi hokimiyatining barpo etilishi barcha jabhalardagi singari, musiqa san‘ati sohasida ham zamon talabiga mos qarash va munosabatlarni yuzaga kelishi, tegishli tushuncha va atamalarning joriy etilishiga olib kelganligini aytib o‘tish lozim. Bir tomondan o‘zbek xalqining moddiy va ma‘naviy boyliklari, osori-atiqalari e‘tiqod-udumlari mustamlakachilar tomonidan poymol qilindi. ...“Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach mintaqaning nafaqat tabiiy va iqtisodiy boyliklari, balki moddiy-ma‘naviy boyliklari ham talon taroj qilindi. Ular Turkistondagi amirlik va xonliklardan qo‘lyozma, xujjatlarni, xalq amaliy san‘ati namunalari hamda nodir risolalar, shuningdek musulmon olamining muqaddas kitobi VIII asrga

mansub “Usmon Qur‘oni” Peterburgga jo‘natildi. Birgina Xiva xoni saroyidagi 300 dan ziyod arab, fors, turk va o‘zbek tillaridagi faxrli noyob manbalar shular jumlasidan Xorazm nota yozuvining nodir nusxalari ham Peterburgdagi Imperator kutubxonasiga jo‘natilgan”. [1,18-b.] Boshqa tomondan, mazkur jarayon evropa madaniyatlarining Markaziy Osiyoda asta-sekinlik bilan mushtaraklashuvi, xususan musiqa san‘atida yangicha tamoyillarning, jumladan universal nota yozuvi, sahnaviy janrlar va boshqa jihatlar kiritilishi bilan to‘ldirilganligini aytish zarur.

O‘zbek milliy qo‘shiqchilik san‘ati ham o‘ziga xos tarzda, milliylik-an‘anaviylik hamda Sho‘ro hukumatining «madaniy inkilob» siyosati jabhalarida namoyon bo‘ldi. 1920 yilning boshidan O‘zbekistonda milliy musiqa asboblarida chalishni o‘rgatadigan maxsus maktablar ochildi. [2,67-b.] Biroq bu maktablar faqat evropacha uslubda bo‘lib, o‘quvchilarga g‘arb nota tizimi, hamda evropa musiqa nazariyasi o‘qitilardi.

1921-1924 yillarda Turkistondagi maorif institutlarida ham musiqa darsi majburiy predmet sifatida o‘qitish boshlandi. Biroq bu institutlarda o‘quv rejaları asosan rus bilim yurtlari uchun mo‘ljallangan tarzda tuzilgan bulib, asosiy predmetlar nota savodi, rus musiqa nazariyasi va tarixi, inqilobiy mazmundagi rus xoridan iborat edi. [3, 277-b.]

Farg‘onada 1921/22 o‘quv yilida faoliyat ko‘rsatgan milliy professional musiqachilar tayyorlash musiqa maktabida 7 ta sinf bo‘lib, ular: fortepiano, skripka va alt, violonchel, kontrabas, damli asboblar, xor sinfi va xalq kuylaridan iborat edi. SHu asosda o‘zbek milliy musiqa madaniyatini «shiddat» bilan chetlashtirilib, uning o‘rniga «baynalmilal» niqobi ostida rus musiqiy madaniyatini kiritish dastlabki yillardayok boshlangan edi. [4, 16-b.]

1918-yildan e‘tiboran Turkiston Xalq Universiteti (Hozirgi Milliy Universitet) tarkibida Turkistonda ham birinchi konservatoriya – Turkiston Xalq konservatoriyasi o‘z faoliyatini boshladi. V.A.Karelin uning birinchi direktori etib tayinlandi. Konservatoriyada o‘z navbatida evropacha andozalar bilan birgalikda sharqona-milliy ta‘lim tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan edi. Mazkur Xalq konservatoriyasining asosiy vazifasi xalqqa musiqadan boshlang‘ich ma‘lumot berish, birorta cholg‘u-sozda chalishni o‘rgatish va xonandalik mutaxassisligidan saboq berishdan iborat edi. O‘qish muddati va dasturi aniq belgilanmaganligi uchun har bir ustoz-pedagog o‘quvchi-talabani qobiliyati va imkoniyatini nazarga olgan holda dars berganlar.

1928 yilda Samarqand musiqa va xoreografiya instituti o‘z faoliyatini boshladi. Institutning rahbari N.Mironov edi. Institut o‘z oldiga xalq ijodiyotini tadqiq etish, milliy ashula va raqs san‘atlarini o‘rgatish, musiqa tarixiga oid ma‘lumotlari to‘plash hamda nota namunalari yaratishdek ma‘rifiy vazifalarni maqsad qilib qo‘ydi.

Ana shu qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun N.Mironov A.Fitrat maslahati bilan Buxorodan: Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Abdurahmon Umarovni; Xorazmdan: Matyusuf Xarratovni, Samarqanddan Abdulaziz Rasulovni, Farg‘ona vodiysidan Ahmadjon Umirzoqov, Abduqodir Ismoilov kabi ustozlarni va o‘zbek adabiyotidan dars berishga shoir, dramaturg G‘ulom Zafariylar taklif qilindi.

Institutning ilmiy faoliyatida bir talay ijobiy ishlar qilindi. O‘zbek va tatar tillarida «Musiqa savodi» qo‘llanmasi, rus tilida «Muzika o‘zbekov» (1929), «Muzika tadjikov» (1930) aspirantlar M.Ashrafiyning “Buxoro xalq qo‘shiqlari”, T.Sodiqovning “Farg‘ona xalq qo‘shiqlari”, SH.Ramazonovning “Xorazm xalq qo‘shiqlari” nomli to‘plam-kitoblari nashr etildi.

1934 yilda Toshkentda Oliy musiqa maktabi tashkil qilindi. 1936 yildan e‘tiboran u Toshkent Davlat konservatoriyasi maqomini oldi. Toshkent davlat konservatoriyasida o‘quv jarayonidan tashqari, dastlabki yillardanoq, V.Uspenskiy rahbarligida ilmiy-metodik kabinet ochildi.

Mustaqillik yillarida Oliy ta‘lim muassasalari ichida O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An‘anaviy cholg‘u ijrochiligi” va “An‘anaviy xonandalik” kafedralari mumtoz musiqamizning etuk ijrochilarini tayyorlashda jonbozlik qilib keldi. Shuningdek, O‘zbekiston davlat San‘at va Madaniyat Instituti esa xalq og‘zaki ijodini o‘rganish va izlanishlar borasida etakchi ta‘lim muassasasidir.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 17 noyabrda “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018 yil 6 apreldagi “Xalqaro maqom san‘ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergan muhim hujjatlar bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta‘lim muassasasi — Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti tashkil etilganligi ham olamshumul voqea sifatida e‘tirofga loyiqdir. [5, 6-b.]

Mazkur institut yurtimizda maqom, xalq musiqasi, baxshichilik va katta ashula ijrochiligini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an‘analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash bilan shug‘ullanadi.

Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda Respublikada musiqiy dargohlarning mavqe‘ini yanada yuksaltirish yo‘lida muayyan ishlarni amalga oshirish darkor. Xususan, Oliy musiqiy ta‘lim dargohlari barcha fakultetlarda milliy musiqa merosimiz Sharq musiqiy tafakkuri, maqomot va uning tahlili alohida fan sifatida yanada chuqurroq o‘tilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, tan olib aytish kerakki, biz Shashamaqomni, uning nazariy asoslarini Yevropa musiqasi (sonata, simfonik turkum shakllari) darajasida bilmaymiz. Shuningdek, bugungi kunda Respublikamizda aynan musiqaga bag‘ishlangan alohida gazeta yoki jurnallarning nihoyatda kamligi ajablanarli holdir. O‘quv dargohlari qoshida uning musiqiy hayoti madaniy yutuqlarini aks ettiruvchi devoriy gazeta va gazeta-jurnallar faoliyatini yo‘lga qo‘yish fursati keldi chamasi.

Xulosa qilib aytganda XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan yangi, evropacha shakldagi musiqiy tafakkur va milliy musiqiy qadriyatlar O‘zbekiston zaminida rivojlanib, ijodiy yutuqlarga erishilmoqda. Mazkur, katta tarixga nisbatan qisqa yigirma yillik davr, o‘zining yangiliklarga boyligi, yangicha g‘oyalar negizida hur fikrlarning yuzaga kelishi va musiqiy merosni zamonaviy kesimda tadqiq etilishi kabi jihatlari bilan tom ma‘noda Mustaqillik davriga hamohangdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Tulenov, Z.G‘afurov “Mustaqillik va milliy tiklanish” T., 1996.
2. Yuldosheva S. O‘zbekistonda muzika tarbiyasi va ta‘limining rivojlanishi. - T., 1985.
3. O‘zbekistonning yangi tarixi :O‘zbekiston Sovet Mustamlakachiligi davrida Toshkent 2000 y.
4. O‘zR MDA, 34-fond, I-ruyxat, 716-yig‘ma jild.
5. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentyabrdagi 536-son qarori.